

## **Yuqori Sinf O'Quvchilarning Lug'at Boyligini O'Stirishning An'anaviy Va Noan'anaviy Usullari**

**Safarova Sarvinoz Faxriddin qizi**

NavDPI tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bu maqola yuqori sinf o'quvchilari lug'at boyligini oshirishda o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanib kelinayotgan an'anaviy va noan'anaviy usullarning ta'riflariga bag'ishlanadi va bu usullarning afazalliklari va kamchiliklari haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Lug'at, an'anaviy usul, noan'anaviy usul, kontekstli usul, yondashuv.

Lug'at - bu tilning asosi bo'lib, u insoniy muloqotning muhim vositasidir. Lug'at lingvistik mahoratning asosi bo'lganligi sababli, uning til o'rganishdagi ahamiyatini ta'kidlamasdan bo'lmaydi. Katta lug'at boyligiga ega bo'lish o'quvchilarga muloqot qilish va o'zini anglash qobiliyatini beradi, bu ularga turli xil til sharoitlarida to'liq ishtirok etish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'rganish, kasb tanlash va turli xil yo'nalishlarda izlanishlar olib borishda, xorijiy til materiallaridan samarali foydalanish uchun ham o'quvchilar yuqori darajadagi so'z boyligiga ega bo'lishlari kerak, bu esa ularga xorijiy tildan o'rganish jarayonida muloqot qobiliyatlari va ravonlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Tilni o'rganish ko'p jihatdan lug'atga tayanadi, u turli xil so'zlar va ularning ma'nolarini o'z ichiga oladi. U tilning mavhum tuzilishini uning kundalik hayotdagi amaliy qo'llanilishi bilan bog'laydi. Kuchli lug'atga ega bo'lmagan til o'rganuvchilar o'z fikrlarini tushunib, to'g'ri etkazishda qiyinchilikka duch kelishadi. Tilni samarali tushunish va ifodalash uchun lug'at zarur.

Lekin, xorijiy tildagi yangi so'zlarni o'zlashtirish, ularni sonini va darajasini o'stirish va nutqda faol va to'g'ri qo'llay bilish yuqori sinf o'quvchilari uchun murakkab vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Lug'at o'rganish va so'zlar sonini oshirish jarayonni qiziqarli va samarali bo'lishi uchun o'rganishning mavjud an'anaviy va noan'anaviy usullaridan eng ma'qullarini tanlab olish zarur va bu usullaro'quvchining Yoshi, qobilyati, qiziqishi va til o'rganish maqsadiga mos kelishi kerak. Quyida yuqori sinf o'quvchilari uchun ingliz tili dars jarayonlarida keng foydalaniladigan, hozirgi paytgacha ko'plab o'qituvchilar tomonidan samarali hisoblangan bir nechta an'anaviy va noan'anaviy usullarni ko'rib o'tamiz.

Nation kontekstsiz o'qitish toifasi ostida ko'plab turli strategiyalarni tasniflaydi. Va ular ichidan eng keng tarqalgan usul bu lug'atlarni ro'yxat shaklida yozib yodlashdir. Maktablarda til o'qituvchilari odatda o'quvchilarga so'zlar ro'yxatini tuzish va ularni lug'atlardan foydalanib tarjima qilishni aytishadi.

Ro'yxat qilib tuzilgan so'zlarda umumiy kontekst yo'q. Ular odatda tartibga solingan so'zlardir. O'qituvchilar ko'pincha o'quvchilarga so'z va ta'riflarni yodlashni buyuradilar, lekin buni qanday qilish bo'yicha treninglar o'tkazmaydilar. Lug'atdan foydalanish tilga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, unda o'quvchilar so'zlarning ma'nosini tushunish uchun lug'atlariga murojaat qiladilar.[1]

Bu usulni hozirgi kunda samarali deb bo'lmaydi. Chunki, bu metod ko'p sonli so'zlar o'rganish va tarjima qilish kerakligi tufayli ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Qolaversa kontekstsiz ta'lim so'z boyligini oshirishni qiyinlashtiradi, deb ta'kidlashadi. O'quvchilar alohida o'rgatilgan so'zlarni yaxshi eslab qolishmaydi.[2]

Yana bir an'anaviy usul kontekstli usul hisoblanadi. Dubin va Olshtainning izlanishlariga ko'ra ushbu tadqiqot ma'lum so'zlar matnlar yordamida tarjima qilish va textdagi ma'nosi bilan eslab qolishdir. Bunda so'z o'quvchi xotirasida boshqa so'zlar bilan birikma tarzda saqlanib qoladi va og'zaki va yozma

nutqda eslash oson bo'ladi, lekin bu so'zlarni faqat bir tomonlama yodlashga olib keladi va so'zning boshqa ma'nolari o'rganilmay qolib ketadi va natijada qo'llash jarayonida ba'zan tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi.

Shtaynning fikriga ko'ra, so'zning ma'nosini aniqlash uchun faqat kontekstli ma'lumotlarning o'zi etarli emas. Til bir nechta talqin variantlarini taqdim etadi, ko'pincha esa kerakli ham ko'proq.[3] Nacion kontekstdan taxmin qilishni o'z ichiga olgan kontekstli lug'atni o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Kontekstli o'qitish matndagi xabarga e'tibor qaratgan holda lug'atni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Kontekstdan o'rgatish so'z ta'riflari yoki tarjimalarini o'rgatishni istisno qiladi. U alohida-alohida keltirilgan so'zlar ko'pincha esda qolmasligini ta'kidlaydi.[1]

Ushbu tadqiqot sinfda o'qitish uchun eng yaxshi samarali yondashuvni aniqlash uchun lug'atni o'rgatish va o'rganishning standart va kontekstli usullarini baholashga qaratilgan.

Endi esa so'z boyligini oshirish jarayonidagi noan'anaviy va juda samarali usulini taqdim etaman. Bu usul IT va tinglab tushunishni o'z ichiga oladi. Bunda ingliz tilini darsida barcha o'quvchilarga bir vaqtning o'zida quloqchilardan foydalangan holda sinfda so'zlashish va Active Training English Skills asosidagi mobil ilova tomonidan taqdim etilgan darslar va yangi so'zlar ustida ishlashadi. Bunday vaziyatda o'quvchilar an'anaviy sinfga qaraganda 5-10 baravar ko'p gapiradilar. Bu o'rganish darslari nafaqat tinglashni, balki diqqatni jamlashni va ixtiyorsiz xotirani ya'ni ixtiyorsiz eslab qolishni jalb qiladi. Bu kabi ta'limda biz barcha sezgi a'zolarimizdan foydalangan holda bir vaqtning o'zida so'zni o'qiymiz, tinglaymiz va takror aytamiz. Bu sizning miyangizning ko'proq joylarini faollashtiradi, shuning uchun siz o'rganish narsalaringizning ko'proq qismini saqlab qolasiz.

Yuqori sinflar uchun keng qo'llaniladigan na'an'anaviy usullardan yana biri bu vizual va realiya. Ya'ni bu usulda lug'at o'quvchilarga rasm, video, obyekt, harakat yoki mimika yordamida ko'rsatib beriladi. Aniq so'zlar (asosan otlar) odatda rasmlar yoki realiya (haqiqiy ob'ektlar) orqali uzatilishi mumkin. Misol uchun, stul kabi so'zni (ot sifatida) stulga ishora qilish yoki rasmni ko'rsatish orqali o'rgatish juda oson. Xuddi shunday, taburet, kreslo, divan, stulda va hokazo kabi tegishli so'zlarni ham xuddi shunday o'rgatish mumkin va ularning har biri orasidagi farq nisbatan aniq bo'ladi. Hatto ba'zi mavhum so'zlarni ko'pincha vizual vositalar yordamida yoki harakatlar, mimikalar yoki imo ishoralar bilan yetkazish mumkin - masalan, quvonch yoki xafa kabi so'zlarni rasmlar, stikerlar va mimikalar bilan tushuntirib berish mumkin. Bunda yangi so'z o'quvchi xotirasida tez va oson qoladi va tasavvur qilish orqali nutqda faol qo'llay oladi.

Xulosa qilib aytganda, lug'at o'rganish jarayonidagi turli an'anaviy va noan'anaviy metodlarning barchasi ham birdek samarali yoki foydasiz emas. O'qituvchi dars jarayoni uchun metod tanlaganda o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib, asosan zamonaviy metodlarni qo'llashni tavsiya qilaman.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Nation, I.S.P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Nation, I.S.P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. New York: Routledge, Taylor&Francis Group.
3. Fratzen, D. (2003). *Factors Affecting How Second Language Spanish Students Derive Meaning from Context*. *The Modern Language Journal*, 87(2), 168-99.